



NASRIY ASARLARNI O'QITISHDA O'QUVCHILARNI IJODIY FIKRLASHGA O'RGATUVCHI SAVOL VA TOPSHIRIQLARNING AHAMIYATI

Avezbayeva J.

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti assistent o'qituvchisi

Таянч сўзлар: intellektual rivojlanish, psixologik mexanizmlar, integratsion yondashuv, epik asarlar, badiiy tahlil, ijodiy fikrlash, pragmatik savollar.

Ключевые слова: интеллектуальное развитие, психологические механизмы, интегративный подход, эпические произведения, художественный анализ, творческое мышление, прагматические вопросы.

Key words: intellectual development, psychological mechanisms, integrative approach, epic works, artistic analysis, creative thinking, pragmatic questions.

Резюме:

Ushbu maqolada adabiy ta'limda integratsion yondashuv asosida o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlari ustida ishlash bo'yicha metodik tavsiyalar berildi. Nasriy asarlar ustida ishlash orqali o'quvchilarda o'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantiruvchi savol va topshiriqlar tizimi ishlab chiqilishi hamda ulardan foydalanish metodikasiga oid fikrlar bildiriladi.

Резюме:

В статье даны методические рекомендации по работе над учебными задачами, развивающими читательскую грамотность учащихся на основе комплексного подхода к литературному образованию. При работе над прозаическими произведениями выражаются идеи о разработке системы вопросов и заданий, развивающих у учащихся умение читать и понимать, а также методики их использования.

Summary:

The article provides methodological recommendations for working on educational tasks that develop students' reading literacy based on an integrated approach to literary education. When working on prose works, ideas are expressed about developing a system of questions and tasks that develop students' ability to read and understand, as well as methods for using them.

Adabiyot inson ruhiyatini tozalaydigan, tafakkurini, tasavvurini o'stiradigan muhim o'quv fani sifatida ta'lim tizimida o'ziga xos o'ringa egadir. Metodist olim Q.Yo'ldoshev adabiy ta'limning maqsadi nafaqat intellektual rivojlanish, balki san'at va fanning insonparvarlik salohiyatini hissiy jihatdan o'zlashtirish,



insonning san'at, fan bilan aloqa qilishi uchun zarur bo'lgan estetik va psixologik mexanizmlarni rivojlantirishdan iboratligiga e'tiborini qaratgan [1:143-147].

Taniqli metodist M.A.Ribnikova: «Metodik usullarni asar tabiati taqozo qiladi... Balladani reja asosida tahlil qilish mumkin, biroq lirik she'rni rejalashtirish maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Kichkina hikoya to'liq hajmda o'qiladi va tahlil qilinadi. Romandan alohida yetakchi boblarni ajratib olamiz, ulardan birini sinfda, boshqasini uyda, uchinchisini sinchiklab tahlil qilamiz va matnga yaqin holda qayta hikoyalaymiz, to'rtinchi, beshinchi oltinchilarini tezroq tahlil qilib qisqacha qayta hikoya qilamiz, yettinchi va sakkizinchi boblarning parchalari alohida o'quvchilarning badiiy o'qishlari shaklida beriladi, epilogni sinfga o'qituvchining o'zi aytib beradi. Topishmoqlarning javobi topiladi va yod olinadi, maqollar izohlanadi hamda hayotiy misollar bilan dalillanadi, masalda esa unda ko'zda tutilgan xulosa nazarda tutilgan holda tahlil qilinadi» [2:58].

Q.Yo'ldoshevning yozishicha, «turli adabiy asarlar bilan ish yuritilganda tahlil usullari mutlaqo o'zgarib ketmaydi, lekin o'quvchining asarga yondashishi, munosabat tarsi o'zgaradi» [3:118].

Gap epik asarlar ustida borar ekan, ularda «har qanday hissiyot voqealar qa'riga berkitilgan» bo'lishiga e'tibor berish zarurati bo'ladi, chunki «qahramonlarni hayotiy voqealar og'ushida ko'rsatish xususiyati epik asarlarda insoniy kechinmalarni tasvirlar jarayoniga joylash imkonini beradi va o'quvchidan bu sezimlarni ilg'ab olish talab qilinadi. Adabiyot o'qituvchisi o'z o'quvchilarida ayni shu malakani – epik asar zamiridagi badiiy ma'noni ilg'ay olish va mantiqiy xulosaga kela bilishni shakllantirishi muhim vazifa hisoblanadi» [3:118].



Nasriy matnlarni integrativ yondashuv asosida o'qitishda quyidagi sohalarga integratsiya qilish mumkin:

Adabiy asarning, jumladan epik turga mansub asarlarning matni ustidagi ish adabiy ta'limning o'zak masalalaridan biridir. U «o'quvchilarni badiiy adabiyot

olamiga olib kirish, tasvirlanayotgan voqealarga nisbatan muallifning munosabati va niyatlarini payqab olishga imkoniyat» [4:16] yaratadi.

Epik asarlarni tahlil qilishda ham o'quvchilarning yosh xususiyatlari, ularning adabiy tayyorgarligi asosiy o'rinda turadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-6-sinflarida asosan eposning kichik janrlari: ertak, hikoya, qissalar, ayrim dostonlar o'rganiladi. Yirik epik asarlarni esa yuqori sinflarda o'rganilishi rejalashtirilgan. Ularning har birini o'rganishda o'ziga xos usul va shakllardan foydalanishga to'g'ri keladi.

Metodist olim Safo Matjonning guvohlik berishicha, "Ayrim o'qituvchilar epik asarlar tahlilini jo'nlashtirib, yozuvchini o'quvchi bilan yonma-yon qo'yadilar. Holbuki, o'quvchilarni yozuvchining badiiy-ijodiy olamiga boshlash zarur. Buning uchun asar tahliliga oid mustaqil ishlarni o'tkazishda o'quvchilar oldiga «qahramonning bu ishi to'g'rimi?», «Uning o'rnida bo'lganda nima qilar edingiz?» kabi ijodiy fikrlashga qaratilmagan savollar o'rniga: «Shu vaziyatda qahramon o'zini boshqacha tutishi mumkinmidi?», «Yozuvchi uni nima uchun aynan shu holatda tasvirlaydi?» singari savollar qo'yilsa, yozuvchining ijodiy laboratoriyasi bilan chuqurroq tanishishga imkon tug'iladi» [5:22-23].

Amerikalik pedagog Robert Vaytxed bu haqida shunday degan edi: "Adabiyot o'qitishning asosiy vazifalaridan biri bolalarda o'qishga mehr uyg'otishdir. Buning shartlari – yaxshi kitoblar, yaxshi dasturlar, ilhomlangan o'qituvchi va o'quvchi faoliyati, albatta, adabiyotshunoslik bilan bog'liq bilimlar ham" [6:3].

Metodist M. To'ychiyevaning o'quv topshiriqlarini takomillashtirish yuzasidan olib borgan tadqiqot ishida zamonaviy ta'lim sharoitida yo'ldosh darsliklar yaratish masalasi ham tavsiya qilinadiki, ularda asosiy darslikdan o'rin olgan kichik hajmdagi badiiy asarlar kengaytirilgan tarzda berilishi, dasturda mustaqil o'qish uchun tavsiya etilgan asarlar ham yo'ldosh darsliklarning materiali bo'lishi mumkin"ligiga urg'u qaratiladi. [7:148]

Darhaqiqat, nasriy asarlarni o'qib tushunish uchun o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga pragmatik savol va topshiriqlar berilishi kerak. Savollar shunday tuzilishi kerakki, asar mohiyati osongina ochilsin.

Nasriy matnlar bilan ishlash

Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romani yuksak badiiy asar bo'lishi bilan birga faktik materiallarga boy bo'lgani bois tarixchilar, qadimshunoslar, siyosatchilar, nutqshunoslar uchun ham zarur manba bo'la oladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bu roman ona tili va adabiyot o'qitish metodikasi, milliy pedagogika uchun ham qimmatli manba vazifasini o'taydi.

Mamlakatda uchinchi renessans ro'y berishi uchun "Taraqqiyot strategiyasi"ni amalga oshirishda barcha sohada, jumladan, ta'lim tizimida, zamonaviy kadrlar tayyorlashda tub burilishlar, samarali islohotlar, olib borish, millatni intellektual



jihadan yuksaltirish, jamiyatda ustozning nufuzini oshirish bosh masalalardan biri bo‘lib turibdi.

Ijtimoiy tarmoqlarda rivojlangan mamlakatlarda ustozning nihoyatda qadrlanishi bilan bog‘liq ma‘lumotlar havas bilan qayta-qayta muhokama qilinmoqda. Ustozning soyasini bosib olmaslik uchun yetti qadam orqada yurish kabi yapon va boshqa intellektual jihatdan taraqqiy etgan davlatlar madaniyati targ‘ib qilinmoqda. Bu yaxshi, albatta. Ammo bizdagi mumtoz ustoz-shogirdlik an‘anasi ham bundan qolishmagan. Buni tarixiy faktlar, sodir bo‘lgan birinchi va ikkinchi renessanslar isbotlaydi. Biz bir muddat bu an‘analardan uzoqlashgan edik, ammo yaratilayotgan badiiy asarlar, jumladan, “Alisher Navoiy” kabi romanlar yana shu muhitga qaytarsa, ajab emas.

Asarda buyuk shoirning qanday yetishib chiqishi, bunga sabab bo‘lgan shaxslar, omillar va vositalar aniq ifodalangan. Bu milliy metodikamiz, qolaversa, pedagogikamiz uchun juda muhim edi.

Bugun til va adabiyot o‘qitishning zamonaviy metodikasini ishlab chiqishda mumtoz ta‘lim erishgan yutuqlaridan foydalanish lozim. E‘tiborli jihati shundaki, Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romanida shunday o‘ziga xos yondashuvlar borki, uni bugungi til va adabiyot o‘qitishga tatbiq etish, ayniqsa adabiyot darslarida shunday suhbatlardan foydalanish katta samara beradi.

Jumladan, asarning dastlabki boblaridan birida shoirning bolalaigi, uning ta‘lim olish jarayoni, ustozning shogirdlarga munosabati, o‘quvchilarga qanday savollar berishi mahorat bilan tasvirlangan. E‘tiborni tortadigan jihati shundaki, bugun o‘qituvchi o‘quvchiga berayotgan bilimi qanday ahamiyatga ega ekanligini tushuntirib o‘tirmaydi, Navoiy davrida esa, bunga alohida diqqat qilingan. O‘tilganlarni takrorlash shaklidagi dars mashg‘ulotlari odatda quyidagicha mazmundagi savollar (aqliy hujum)dan boshlanadi:

“Mudarris alik olib, darsni savol bilan boshladi:

– Ayting-chi, Qur‘onni ne uchun o‘qiydurimiz?

– Alloh taoloning hukmlari bo‘lgani bois.

– Balli. Handasani-chi?

– Hisobda xatolar bo‘lmasligi uchun.

– Xo‘sh unda adabiyot-u nazmni-chi?

– Go‘zal qo‘shiqlar kuylamoq uchun.

– Xayr, deb javob qildi mudarris. Shul sababdinkim, el-ulusning, raiyatning ulug‘lari so‘zini go‘zal aytmog‘ uchun...” Ko‘rinib turibdiki, mudarris o‘quvchilarni fikrlashga undayapti, xato javob bersa, hafsala bilan uni tuzatib turibdi.

Mudarris yana shunday davom etadi: “Sizlarga olamning eng kuchli quroli haqida aytib beraman, – deydi mudarris. Toping-chi, nima ekan?”. Bu o‘quvchilarni fikrlashga, tafakkur qilishga undash, mashg‘ulotga qiziqtirishning eng yaxshu

usuli hisoblanadi. Qariyb olti yuz yil avval amalda qo‘llangan. Mudarris savol bergach o‘quvchilar har xil o‘zlari tasavvur qilgan narsalarni aytishadi:

- Manjinaq.
- Ho‘kiztumshuq.
- Fil.

Shunda mudarris yoyilib jilmayadi va: -Yo‘q, men aytmoqchi bo‘lgan narsa ulardan ham kuchli, u so‘z,- deydi.

Mudarris bolalar biladigan jonivorlardan misol keltirib, itlar uch xil tovush chiqaradi: vovullaydi, angillaydi, huradi. Shu uch tovush uning umr kechirmog‘i uchun yetarli,-deydi. Umuman, bu o‘rinda mudarris so‘zning inson hayotidagi ahamiyatini olam va odam misolida tushuntirib beradi va yo‘l-yo‘lakay o‘quvchilarga ham salmoqli savollar berib, ularning javoblarini yo olqishlab, yoki to‘ldirib boraveradi. Ayniqsa, arabcha tuya so‘zi sharhidan keyin turkiy tilning go‘zal va boy ekanligini ot so‘zi orqali yosh Alisherga ustoz Abu Abdulloh Kulohiy aniq misollar bilan (qulun, toy, ayg‘ir, biya, to‘riq, saman, tarlon, tulpor) tushuntirib beradi. So‘z va uning ma‘nolari ustida mashg‘ulot olib boriladi.

Isajon Sulton o‘z asarida mana shu jihatga alohida e‘tiborni qaratgan. Alisherning Navoiy bo‘lish jarayonini ipidan ignasigacha tasvirlab beradi. Bunga xizmat qilgan omillar va vositalarni izma iz ifodalab boradi. Bir so‘z bilan aytganda tarixiy faktlarga tayanib, ishonchli badiiy to‘qimalar keltirib, ijodiy tafakkur sohiblarini yetishtirishning milliy modelini o‘zi bilmagan holda yaratib bergan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shuni alohida aytishimiz mumkinki, “Alisher Navoiy” romanini o‘qigan kishi Alisher Navoiy ham shoir sifatida ham inson sifatida ko‘z oldida to‘liq namoyon bo‘ladi. O‘zbek adabiyoti, adabiyot o‘qitish metodikasi uchun kamyob hodisa o‘laroq mazkur roman, shu jumladan, Isajon Sultonning boshqa asarlari uzluksiz ta‘lim tizimida yosh avlodda ijodiy tafakkur va dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандарти ва ўқув дастури. Таълим тараққиёти. Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлигининг Ахборотномаси. 1-сон. Она тили. Адабиёт. Ўзбек тили. – Тошкент: Шарқ, 1999. – 143–147-б.
2. Рыбникова М. А. Очерки по методике литературного чтения. – М., 1985. – С. 58
3. Йўлдошев К. Адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий асослари. Тошкент, Ўқитувчи, 1996, 118-бет.
4. Зуннунов А., Адабиёт ўқитиш методикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1992. – 16-бет
Сафо Матжон. Мактабда адабиётдан мустақил ишлар., 22-23-бетлар.
6. Вайтхед Р. Детская литература: Руководство обучением. – Нью-Джерси, 1968. – С. 3.
7. Туйчиева М.У. 5-7-синфлар адабиёт дарсларида ўзлаштириладиган ўқув материалларини та-комиллаштириш тизими. Пед. фан. бўй. фалс. док. (PhD) ... дисс. – Самарқанд, 2019. – 148-б.